



ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>



FROM THE HISTORY OF TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES IN THE UPPER PART OF KASHKADARYA REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Bakhtiyar Rakhimov

lecturer

Presidential School in Karshi

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Shahrisabz, textiles, foreign partners, joint ventures, "Hujum" factory, investments, "Oksaroy-Toqimachi LTD", yarn, knitting

Received: 29.10.24

Accepted: 31.10.24

Published: 02.11.24

Abstract: This article tells about the changes that took place in the textile industry in the upper part of Kashkadarya region during the years of independence, and about the work activities of joint enterprises established in cooperation with foreign partners. Facts about the contribution of joint ventures to the economic development of the country are presented.

ISTIQLOL YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATINING YUQORI QISMIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING FAOLIYATI TARIXIDAN

Baxtiyor Raximov

o‘qituvchi

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Shahrisabz, to‘qimachilik, xorijiy hamkorlar, qo‘shma korxonalar, "Hujum" fabrikasi, investitsiyalar, "Oqsaroy-To‘qimachi LTD", ip-kalava, trikotaj

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining yuqori qismida mustaqillik yillarida to‘qimachilik sanoatida ro‘y bergan o‘zgarishlar, xorijiy hamkorlar bilan hamkorlikda barpo etilgan qo‘shma korxonalarining ish faoliyatlari haqida hikoya qilinadi. Qo‘shma korxonalarining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida faktlar keltirilgan.

ИЗ ИСТОРИИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ВЕРХНЕЙ ЧАСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Бахтияр Рахимов

преподаватель

Президентская школа в Карши

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Шахрисабз, текстиль, иностранные партнеры, совместные предприятия, фабрика «Худжум», инвестиции, «Оксарой-Токимачи ЛТД», пряжа, вязание.</p>	<p>Аннотация: В данной статье рассказывается об изменениях, произошедших в текстильной отрасли верхней части Кашкадарьинской области за годы независимости, и о деятельности совместных предприятий, созданных в сотрудничестве с иностранными партнерами. Представлены факты о вкладе совместных предприятий в экономическое развитие страны.</p>
--	---

Qashqadaryo viloyati geografik xususiyatiga ko‘ra yuqori va quyi mintaqalarga bo‘linadi. Yuqori mintaqa asosan viloyatining Kitob, Shahrisabz va Yakkabog‘ tumanlaridan iborat. Ushbu mintaqada viloyatning qadimiy tarixga ega ko‘plab arxeologik va me‘moriy yodgorliklari ham joylashgan. Bu yodgorliklar mintaqa aholisining qadimiy va hozirgi mashg‘ulotlarining ildizlari haqidagi fikrlarni isbotlaydi. Shahrisabz-Kitob vohasida barcha yerlar sug‘oriladigan va lalmikor yerlarga bo‘lingan. Sug‘oriladigan yerlarda asosan sholi va paxta ekinlari ekilib dehqonchilik qilingan.

XVII asrda yashagan tarixchi Mahmud ibn Valining ma‘lumotlariga ko‘ra Shahrisabzda paxta mahalliy ishlab chiqarish ehtiyojlaridan tashqari tashqi savdoga ham ketgan bo‘lib, shu tufayli uni yetishtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etgan. Shuningdek mintaqaga XIX asrda o‘z sayohatini amalga oshirgan I. Bekchurinning yozishicha, bu yerda tut daraxtlari ko‘p uchraydi. Tut daraxti yaproqlari bilan ipak qurti boqilgan. Bu daraxtlar paxtachilikning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynagan.[1] Bu holatlar mintaqa aholisi orasida to‘qimachilik sohasining asosiy hunarmandchilik mashg‘ulotiga aylanishiga sabab bo‘lgan. To‘qimachilik sohasida asrlar osha shakllangan ko‘nikmalar va tajribalar texnika inqiloblari davrida nihoyatda qo‘l keldi. XX asrning 70-yillarida Shahrisabzda mahalliy sanoat rivojlandi. “Hujum” badiiy buyumlar fabrikasida uzun tukli “julxurs”, turli do‘ppilar, shohi so‘zanalar, kuylaklar va boshqa buyumlar ishlab chiqarila boshlandi. Monreal (1968), Izmir (1970), Yaponiyada (1971) bo‘lgan xalqaro ko‘rgazmalarda “Hujum” fabrikasida tikilgan do‘ppi va kashtalar oltin medallarga sazovor bo‘ldi.[2]

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishilgandan keyingi yillarda ham mintaqada to‘qimachilik sohasida ko‘plar o‘zgarishlar amalga oshirildi. Istiqolol Shahrisabz sanoatida ham tub burilishlar davrini boshlab berdi. Ilgari xom ashyo mahsuloti tayyorlashga yo‘naltirilgan sanoat korxonalarida tayyor xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. 1993-yil 28-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “Hujum” fabrikasiga jamoa korxonasi maqomi berildi. Fabrika shahar sanoati tarmog‘ida birinchi bo‘lib davlat tasarrufidan chiqarilib, jamoa korxonasiga aylantirildi.

Shahrisabzdagi “Sado” ochiq hissadorlik jamiyati yangi texnologiyalarni jalb etish natijasida viloyatning iqtisodi yuksalayotgan sanoat korxonalaridan biriga aylandi. 1993-yil yanvar oyida ishga tushirilgan bu korxonada dastlab tikuv-trikotaj fabrikasi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1994-yil iyun oyida korxonada hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan. 1995-yilda to‘quv tsexi ishga tushirildi. Rossiya Federatsiyasidan KO-2 rusumli 8 dona trikotaj polotnosi to‘qiydigan mashinalar keltirib o‘rnatildi.

1999-yilda Shahrisabzdagi “Sado” hissadorlik jamiyati Turkiyaning “Bursel” va Yaponiyaning “Mitsubisi” korporeyshn firmasi bilan ip yigiruv qo‘shma korxonasini qurish bo‘yicha muzokalarni amalga oshira boshladi. Qiymati 5 mln AQSH dollarlik fabrika loyihasi to‘liq ekspertizadan o‘tkazildi. Mablag‘ning 85%i Yaponiyaning “Eksimbank” krediti hisobiga olinadigan bo‘ldi.[3] “Ozbekiyengilsanoat” uyushmasining “Sado” AJ tomonidan Yaponiyaning “Mitsubisi korporeyshn” va Turkiyaning “Bursel” firmalari tomonidan quvvatlari 4800 tonna ip-kalavani va 2000 tonna trikotaj polotno ishlab chiqaruvchi “Oqsaroy To‘qimachi LTD” O‘zbekiston-Yaponiya-Turkiya qo‘shma korxonasini qurish ishlari 2000-yil sentabr oyida boshlandi. Bu korxonani 2002-yilda ishga tushirilishi mo‘ljallangan edi. Korxonaning ustav fondi 2,444 mlrd Yaponiya iyenasi tashkil etib, unda “Sado” MCHJ ulushi 41,75%, “Bursel” ulushi 54,85%, “Mitsubisi korporeyshn” ulushi 3,4%ni tashkil etadi.[4]

Shu tariqa sanoat korxonasini yanada kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish maqsadida chet el investitsiyasi jalb etilib “Oqsaroy-To‘qimachi LTD” qo‘shma korxonasi tuzildi.[5] Korxonada belgilangan muddatdan 4 oy oldin ishga tushirildi. 2002-yili Navro‘z arafasida ishlay boshlagan “Oqsaroy-To‘qimachi LTD” O‘zbekiston-Turkiya-Yaponiya qo‘shma korxonasining rasmiy ochilish marosimi 2002-yil 11-aprelda bo‘lib o‘tdi. Ushbu marosimda Turkiya va Yaponiya elchixonalari, ta‘sischi kompaniyalar vakillari ishtirok etishgan. “Oqsaroy-To‘qimachi LTD” qo‘shma korxonasi 2003-martigacha 9,5 mln AQSH dollarilik mahsulot ishlab chiqarishga erishdi. Qisqa vaqt mobaynida “Oqsaroy-To‘qimachi LTD” tsexlarida 6,5 mln tonnadan ortiq xom ashyo qayta ishlandi. 4620 tonna ip-kalava va 720 tonna trikotaj matosi tayyorlangan.[6] Shahrisabzdagi “Oqsaroy-To‘qimachi LTD” qo‘shma korxonasi 2003-yilning 10 oyi mobaynida

xorijga 11 mln 274 ming AQSH dollarilik mahsulotni eksport qildi. “Sado” aksiyadorlik jamiyati hamda Yaponiyaning “Mitsubisi” kompaniyasi va Turkiyaning “Bursel” firmasi tomonidan ta’sis etilgan bu korxonada yanvar-oktabr oylarida 5040 tonna mahsulot ishlab chiqarib chet elga 2917 tonna ip-kalava va 1687 tonna trikotaj matosi sotdi.[7] “Oqsaroy-To‘qimachi LTD” qo‘shma korxonasida 2002-2003-yillarda 19400 tonna paxta xom ashyosi qayta ishlanib 11140 tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarildi. 23 mln 930 ming AQSH dollarilik mahsulot Turkiya, Yevropa mamlakatlari va Amerikaga eksport qilingan.[8]

Ishlab chiqarish bilan birgalikda Shahrisabz tumanidagi “Sado” aksiyadorlik jamiyati respublikada o‘tkazilgan ko‘rgazma va yarmarkalarda faol ishtirok etish tadbirlarini ham amalga oshirgan. Firma menejerlari 2003-yil oxirida nufuzli yarmarkada ishtirok etib “Taesians” firmasi orqali AQSHning Los-Anjeles shahridagi savdo uyiga 112 ming AQSH dollari miqdoridagi trikotaj mahsulotlarini yetkazib berdi. 2004-yil boshida Janubiy Koreyaning “Taygin” firmasi bilan umumiy qiymati 500 ming AQSH dollariga teng shartnomani imzoladi.[9]

Shahrisabzdagi “Oqsaroy-To‘qimachi” O‘zbekiston-Turkiya-Yaponiya qo‘shma korxonasi 2006-yilda tayyorlagan mahsulotning 98 foizini eksport qildi. Tovar ishlab chiqarish rejasi 121,2 % ni tashkil etdi. 4000 tonna ip-kalava, 980 tonna gazlama tayyorlanib o‘nlab xorijiy davlatlarga jo‘natildi. 2006-yili 2,5 mln AQSH dollari miqdorida sof foyda olindi.[10] 2016-yil 12-13-oktabr kunlari Toshkentda 12-Xalqaro paxta va to‘qimachilik yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Shahrisabz tumanidagi “Oqsaroy-Tekstil LTD” MCHJ Xitoy, Rossiya, Bangladesh ishbiarmonlari ip-kalava sotib olish maqsadida shartnomalar imzolagan. 2016-yil yanvar-sentabr oylarida “Oqsaroy tekstil”da 5266 tonna paxta tolasi qayta ishlanib 4219 tonna ip-kalava tayyorlangan. Rossiya, Xitoy, Turkiya, Eron, Bosniya va Gersegovinaga 8 mln 470 ming AQSH dollarilik ip-kalava eksport qilingan.[11]

“Oqsaroy group” kompaniyasi ayni paytda mamlakatimiz yengil sanoati tizimida faoliyat yuritayotgan eng yirik subyektlardan biridir. Bu korxonaning bosh ofisi Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan. “Oqsaroy group” tarkibidagi eng yirik korxonalardan biri Shahrisabz shahridagi “Oqsaroy tekstil” korxonasi hisoblanadi. Ip-kalava ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bu korxonada 2001-yilda ishga tushirilgan edi va 2014-yilda modernizatsiya qilindi. Korxonada tasarrufida “Oqsaroy klaster” MCHJ tashkil etilgan bo‘lib, unda ichki va tashqi bozorda xaridorgir mato ishlab chiqariladi. Bu loyihalar evaziga yiliga 9000 tonna ip-kalava, 4000 tonna trikotaj mato tayyorlanadi. 2019-yilda 6 mln AQSH dollarilik mahsulot eksport qilingan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. “Oqsaroy group” kompaniyasi tomonidan 2020-yilda Shahrisabz shahrida “Oqsaroy Vortex” korxonasi tashkil etildi. Bu korxonada paxta tolasi bilan bir qatorda sun‘iy toladan ham kalava ip va trikotaj mato ishlab

chiqarishga ixtisoslashgan. Bu korxonaning loyiha qiymati 15 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Korxonada Yaponiyaning “Murata” kompaniyasida ishlab chiqarilgan “Vortex” texnologik uskunalari bilan jihozlangan. Korxonaning to‘quv tsexi Germaniyaning “Mayer” kompaniyasi texnologiyalari bilan jihozlangan. “Oqsaroy Vortex” korxonasi yiliga 3000 tonna kalava ip, 5500 tonna sun‘iy tolali ip, 3500 tonna trikotaj mato ishlab chiqarish quvvatiga ega.[12]

Qashqadaryo viloyatining yuqori mintaqasida XX asr 90-yillarida ishga tushirilgan korxonalardan biri “Yakkabog‘ vohateks” korxonasi hisoblanadi. Istiqlol yillarida Yakkabog‘ to‘quv fabrikasi o‘z faoliyatini izchil davom ettirish maqsadida ko‘plab yangilanishlarni amalga oshirdi. 1998-yilda Yakkabog‘ to‘quv fabrikasida 992 ming AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘i o‘zlashtirildi. Bu esa 800 ishchi o‘rnini saqlab qolish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish imkoniyatini berdi.

1998-yilda Gretsiyaning “Mexanologi Ellas” kompaniyasi bosh direktori Kiryakos Karayanis “Yakkabog‘ to‘qimachilik” hissadorlik jamiyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan tanishdi. Kompaniya bilan jamiyat o‘rtasida zamonaviy ip yigiruv fabrikasini qurish va mahsulot ishlab chiqarishda hamkorlik qilish yuzasidan dastlabki hujjatlar imzolandi. 5-6 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan bu loyiha bir yilda 2500 tonna mahalliy paxta tolasini qayta ishlab shartli ip-kalava tayyorlash imkoniyatini berar edi.[13]

Viloyatning eksport salohiyatini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish masalasida 2000-2005-yillarga mo‘ljallangan maxsus hududiy dastur qabul qilingan. Lekin Respublika mintaqalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonlarni tashkil etish dasturiga muvofiq 2002-yilda 4 ta qo‘shma korxonada tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, Qarshi shahrida yiliga 1100 tonna tibbiy doka va 1800 tonna tibbiy momiq ishlab chiqaradigan “Qashfarmteks” O‘zbekiston-Angliya qo‘shma korxonasi tuzildi. Yakkabog‘ tumanida “O‘zbekiston” ko‘p tarmoqli korxonasi negizida yiliga 2500 tonna ip-kalava ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonada tuzish uchun Germaniyaning “TEXPROJECT” firmasi bilan muzokaralar olib borildi. Ushbu loyiha bo‘yicha xorijiy hamkor qiymati 5 mln 100 ming yevro bo‘lgan texnologiya kiritilishi mo‘ljallandi.[14] Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz mustaqilligining 13 yilligi arafasida ish boshlagan “Yakkabog‘teks” qo‘shma korxonasi paxta tolasidan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi to‘rtinchi yirik sanoat obyektiga aylandi. Yakkabog‘ tumanidagi “O‘zbekiston” ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish korxonasi hamda Germaniyaning “Unitexno Industri anlagen GMBX” firmasi tomonidan ta‘sis etilgan qo‘shma korxonada paxta tolasidan yiliga 3000 tonnadan ortiq ip-kalava ishlab chiqarish quvvatiga ega edi. Qo‘shma korxonaning nizom jamg‘armasi 1813000 yevro bo‘lib, O‘zbekiston tomonining ulushi 1263000 yevro ya‘ni 70 %, chet el sarmoyadorining ulushi 30% ya‘ni 550000 yevroni tashkil etadi. Texnologik

uskunalarni sotib olish uchun Germaniyaning “Kommersbank”i hamkorligida “Asakabank”dan 5,3 mln yevro miqdorida uzoq muddatli kredit rasmiylashtirilgan edi. Ushbu kredit evaziga Germaniyaning “Trutzschder”, Chexiyaning “Elitex” firmalarida ishlab chiqilgan zamonaviy qayta ishlash uskunalari sotib olindi. [15]

2017-yilda Yakkabog‘ tumanida “Yakkabog‘ vohateks” korxonasi ishga tushirildi. Bu korxonada o‘sha paytda “Sho‘rtangaz kimyo” majmuasi MCHJ tasarrufida bunyod etilgan bo‘lib, loyiha qiymati 8,5 mln AQSH dollarini tashkil etgan. “Yakkabog‘ vohateks” MCHJ 2017-yilda 1 mln 800 ming AQSH dollarilik mahsulotni xorij bozoriga chiqardi. Asosiy savdo hamkorlari Turkiya va Rossiya davlatlari bo‘ldi. [16] 2018-yil fabrikada 1824 tonna ip-kalava tayyorlangan bo‘lsa shuning 1300 tonnadan ziyodi xorij mamlakatlariga eksport qilindi. Chetga jo‘natilgan mahsulot hajmi 3 mln 125 ming AQSH dollariga teng bo‘ldi.[17] Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-avgustdagi “Neft-gaz tarmog‘i aktivlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan “Sho‘rtangaz kimyo majmuasi” MCHJ “Yakkabog‘ vohateks” korxonasidagi ulushini sotuvga quyildi. 2020-yili bu ulush xususiy tadbirkor tomonidan sotib olinib “Yakkabog‘ vohateks” korxonasi “Yakkabog‘ Said Baraka tekstil” MCHJ sifatida qaytadan tashkil etildi. Korxonada yigiruv tsexi Shveysariyaning “Riter” kompaniyasi dastgohlari bilan jihozlangan. Yiliga 3000 tonna kalava-ip tayyorlash imkoniyatiga ega. 2020-yili ishlab chiqarilgan mahsulot 100 foiz xorijiy davlatlarga eksport qilingan. [18]

Qashqadaryo viloyatining yuqori mintaqasida to‘qimachilik sanoati sohasida ipakchilik sohasining o‘rni ham juda muhim hisoblanadi. 1977-yilda Shahrisabz shahrida yiliga 200 tonnadan ziyod tabiiy ipak tayyorlash quvvatiga ega pillakashlik fabrikasi ishga tushirildi. “Hujum” fabrikasi jamoasi o‘z mahsulotini respublikadagi “O‘zoptgalatereya”, “O‘zbekbirlashuv”, “Ferganagalanteriya” bazalari va boshqa 80 ta savdo tashkiloti orqali aholiga yetkazib berdi. Milliy an‘analarni aks ettirgan xalq amaliy san‘ati namunasi bo‘lgan badiiy buyumlar butun dunyoda ham katta qiziqishni uyg‘otdi. 1995-yilda AQSHning “Blix-Imports” savdo firmasi fabrika mahsulotini sotib olish haqida shartnoma imzoladi. 1995-yilda Toshkentdagi “Maula” firmasi orqali Isroilga 5 mingta do‘ppi sotildi. [19]

XXI asrga kelib mintaqada ipakchilik sohasini rivojlantirish uchun ham loyihalar amalga oshirildi. 2020-yili Shahrisabz tumanining Yangiqishloq mahallasi hududida “Shakhrisabz silk production” MCHJ 62 mlrd so‘m loyiha qiymati bilan barpo etildi. Bu yirik pillachilik klasteri bo‘lib, u yerda xom ashyoni yetishtirishdan tortib uni qayta ishlash va eksport qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlar amalga oshiriladi. Bu klasterda afg‘on gilamlari ishlab chiqiladi.[20]

Qashqadaryo viloyatining yuqori mintaqasida istiqbol yillarida barpo etilgan to‘qimachilik sanoat korxonalarini aholining ish bilan bandligini ta‘minlashda o‘z o‘rniga ega hisoblanadi.

Shuningdek ushbu korxonalar viloyat va respublika iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. –Toshkent.: “Sharq”, 1998. 180-182-betlar.
2. Shahrisabz-2700. Ming yillar merosi. – Toshkent.: “Sharq”, 2002, 140-bet.
3. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi, 829-jamg‘arma, 10-ro‘yxat, 28-yig‘ma jild, 17-bet.
4. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi, 829-jamg‘arma, 10-ro‘yxat, 93- yig‘ma jild, 36-bet.
5. To‘rayev X. Iqtisodiyoti yuksalayotgan korxonalar. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2001-yil, 1-avgust, 61-son.
6. Temirov B. Mahsulotning yuz foizi – eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2003-yil, 21-mart, 24-son.
7. “Qashqadaryo” gazetasi, 2003-yil 25-noyabr, 95-son.
8. Boymurodova S. Qo‘shma korxonaning sara mahsulotlari. // “Qashqadaryo” gazetasi. 2004-yil 19-iyun , 49-son.
9. Xayrullayev T. Buyurtmalar xajmini ko‘paytirish maqsadida. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2004-yil 30-iyun, 52-son.
10. “Qashqadaryo” gazetasi, 2007-yil 23-yanvar, 7-son, 1-bet.
11. Jo‘rayev M. Eksport geografiyasi kengayadi. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2016-yil 18-oktabr, 125-son.
12. Boymuradov J. Keng qamrov, zamonaviy texnologiya, yuzlab yangi sih o‘rinlari, eksportbop mahsulot. //“Qashqadaryo” gazetasi, 2021-yil 23-fevral 15-son.
13. “Qashqadaryo” gazetasi, 1998-yil 25-mart, 25-son.
14. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi, 829-jamg‘arma, 15-ro‘yxat, 38- yig‘ma jild, 13-14-bet.
15. Muhammadiyev A. Bayramga munosib tuhfa. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2004-yil 21-avgust, 67-son.
16. Jo‘rayev M. Eksport salohiyati. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 19-may, 59-son.
17. “Qashqadaryo” gazetasi. 2019-yil 15-fevral, 12-son.
18. Qilichev J. Yirik majmua xususiylashtirildi. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2021-yil 12-fevral, 12-son.
19. Shahrisabz-2700. Ming yillar merosi. –Toshkent.: “Sharq”, 2002, 140-bet.
20. Boymurodov J. Afg‘on gilamlari ishlab chiqilyapti. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2021-yil 29-iyun, 50-son.